joriy qilishning pedagogik asoslari. STEAM ta'limini muvaffaqiyatli joriy qilish uchun quyidagi pedagogik tamoyillarga e'tibor qaratiladi: integratsiyalashuv tamoyili: turli fanlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash; amaliy yondashuv tamoyili: o'quvchilarning real muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan faoliyatlari; ijodiylik tamoyili: o'quvchilarning o'ziga xos fikrlar yaratishini rag'batlantirish; moslashuvchanlik tamoyili har bir o'quvchining individual qobiliyatlariga mos o'qitish usullarini qo'llash. STEAM ta'limi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni shakllantirish va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash uchun samarali yondashuvdir. Olimlarning qarashlari ushbu modelning pedagogik asoslarini chuqur tushunish va uni muvaffaqiyatli joriy qilishda yo'l ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Абдукаримова, М.М. Основы STEAM-образования в современной школе. Ташкент, "Университет", 2020, 256 с.

(2). Махмудов, А.Р. Интеграция STEM и ART как основа развития творческого мышления. "Педагогика и инновации", 2021, № 4, с. 34–41.

(3). Салимова, Д.А. Технологии STEAM в начальном образовании. Москва, издательство "Академия", 2019, 198 с.

(4). Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., Freeman, A. The NMC Horizon Report, 2016, Higher Education Edition. Austin, Texas, The New Media Consortium, 2016.

(5). Колесникова, О.Е. STEAM-подход в образовательной практике. Методические рекомендации, Санкт-Петербург, изд-во СПбГУ, 2020.

(6). Bybee, R.W. The Case for STEM Education. Challenges and Opportunities.

Axmedov Akmal Yusufovich (Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi; e-mail:akmal0086ahmedov@gmail.com; ORCID ID 0000-0002-3723-1596)

KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK BO'LAJAK PEDAGOG IJTIMOIY VA KASBIY FAOLIYATI ASOSIDIR

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy pedagog faoliyatida kommunikativ kompetentlikning muhim omil ekanligi yuzasidan tushunchalar beriladi, uning kasbiy faoliyati yuzasidan turli toifadagi shaxslar bilan ishlashdagi muhim ahamiyatini asoslaydi hamda rivojlantirish yo'llari ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy pedagog, kommunikativ kompetentlik, kasbiy faoliyat, rivojlanish, ahamiyat, muloqot, empatiya, ishonch, samaradorlik, ijtimoiy ta'sir.*

Ахмедов Акмал Юсуфович (преподаватель Ферганского государственного университета; e-mail:akmal0086ahmedov@gmail.com; ORCID ID 0000-0002-3723-1596)

КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ – ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Аннотация. *В статье рассматривается важность коммуникативной компетентности в деятельности социального педагога. Обосновывается её значимость в работе с различными категориями людей и подчеркиваются пути её развития.*

Ключевые слова: *социальный педагог, коммуникативная компетентность, профессиональная деятельность, развитие, значимость, общение, эмпатия, доверие, эффективность, социальное воздействие.*

Akmal Yusufovich Akhmedov (Lecturer at Fergana State University;e-mail:akmal0086ahmedov@gmail.com; ORCID ID 0000-0002-3723-1596)

COMMUNICATIVE COMPETENCE IS THE FOUNDATION OF A FUTURE TEACHER'S SOCIAL AND PROFESSIONAL ACTIVITY

Annotation. *The article discusses the importance of communicative competence in the work of a social pedagogue, highlighting its significance in interacting with various individuals in their professional activities. It also emphasizes ways to develop this competence.*

Keywords: *social pedagogue, communicative competence, professional activity, development, importance, communication, empathy, trust, effectiveness, social impact.*

Kirish. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida ishlab chiqarish, boshqaruv va madaniyatning barcha sohalarida yuqori darajada faoliyat ko'rsata oladigan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash vazifasi turibdi. O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida va jahon ta'lim makoniga integratsiya qilish maqsadida, zamonaviy mutaxassislardan nafaqat o'zlarining tor ilmiy yo'nalishlarida, balki keng ko'lamdagi ta'lim texnologiyalarini puxta egallash, ularni o'quv jarayonida samarali qo'llay olish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish talab etiladi. Shu sababli ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik sifatini

oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mutaxassislar koʻp qirrali ijtimoiy amaliyotni amalga oshiradigan, oila, mehnat, kundalik hayot va dam olish sohalarida, turli yosh guruhlari bilan ishlashda maxsus bilimlarga ega boʻlishlari zarur. Ijtimoiy amaliyot quyidagi asosiy yoʻnalishlarda amalga oshiriladi: ijtimoiy tarbiya, ta'lim, sogʻliqni saqlash va reabilitatsiya, ijtimoiy ishlar, xavfsizlik, huquqlarni himoya qilish, qaramliklarning oldini olish (masalan, alkogolizm, narkomaniya, qimorbozlik). Ushbu sohalarning barchasi samarali ijtimoiy-pedagogik faoliyatni talab qiladi, bu esa mutaxassisning kommunikativ kompetentligi shakllanganligi bilan belgilanadi. Yaxshi til bilimi, muloqot vositasi sifatida, nafaqat oliy ta'limda muvaffaqiyatli oʻqish, balki ijodkor, ijtimoiy yoʻnaltirilgan, harakatchan shaxsni shakllantirish uchun ham zarur boʻlib, turli kundalik, ishbilarmonlik va kasbiy muloqot vaziyatlarida oʻzini ishonchli his qilish imkonini beradi.

Kommunikativ kompetentlik pedagogning oʻz kasbiy funksiyalarini yuqori darajada amalga oshirishi va jamiyatning ijtimoiy kutilmalarini roʻyobga chiqarishi uchun asosiy shart boʻlib, mutaxassisning ijtimoiy-kasbiy mavqeyining muhim koʻrsatkichlaridan biridir.

Kompetentlik ilmiy kategoriya sifatida kasbiy ta'limida XX asr oxirida maxsus, har tomonlama tadqiqot mavzusiga aylanadi. Tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni mutaxassis shaxsining integrativ xususiyati deb tushunadilar, ya'ni u bilimlar, koʻnikmalar va malakalar majmuasini, mehnat samaradorligini, vazifani bajarish tajribasini, mutaxassis shaxsining kasbiy jihatdan muhim sifatlarining kompleksini, mehnat faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligini anglatadi.

Kommunikativ kompetentlik bu boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlash qobiliyatidir. Samarali muloqot oʻzaro tushunishni, vaziyat va muloqot mavzusini chuqur anglashni ta'minlaydi. Bu muammolarni hal qilishga yordam beradi, maqsadlarga optimal resurslar sarfi bilan erishishni ta'minlaydi.

Pedagogning ijtimoiy va kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning roli alohida ahamiyatga ega. Bu uning kasbiy faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi, ijtimoiy-pedagogik oʻzaro ta'sirni ijtimoiy xizmatlar tizimida amalga oshirishda, uning mikromuhitini diagnostika qilish va aniqlashda, pedagogik nizolarni hal qilish texnologiyasida, ijtimoiy profilaktika, korreksiya, reabilitatsiya, maktab yoshidagi yoshlar uchun klub va dam olish faoliyatini tashkil etishda.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy pedagogika insonlarning zaif qatlamlari, ayniqsa, bolalar, yoshlar va qiyin hayotiy vaziyatga tushgan shaxslarning farovonligini ta'minlashda muhim strategik oʻrin tutadi. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati nafaqat bilim va koʻnikmalarga, balki bevosita uning kommunikativ kompetentligiga bogʻliq boʻlgan samaradorlik darajasiga ham tayanadi. Kommunikativ kompetentlik faqatgina mijozlar bilan muloqotda emas, balki hamkasblar, jamoatchilik va turli tashkilotlar bilan hamkorlikda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu kompetentlik ijtimoiy pedagogga mijozlar bilan ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatlar oʻrnatish, ularning muammolarini chuqur tushunish, ijtimoiy-psixologik holatini aniqlash va samarali yordam koʻrsatish imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan, pedagoglar uchun kommunikativ kompetentlikni doimiy ravishda rivojlantirish nafaqat kasbiy zarurat, balki insonparvarlik burchidir. Maqola pedagog kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning oʻrnini, uning tarkibiy qismlarini va rivojlantirishning muhim yoʻnalishlarini ochib berishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kommunikativ kompetentlik deganda, vazifalardan kelib chiqadigan va ular tomonidan belgilangan boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlash qobiliyati tushuniladi. Bu insonning muloqotni koʻp darajali jarayon sifatida egallash darajasini belgilaydi. V.A.Kann-Kalik kommunikativ kompetentlikni pedagogning kasbiy-shaxsiy sifati sifatida koʻrib chiqadi va pedagogik kommunikatsiyani amalga oshirish qobiliyatlari, kommunikativ koʻnikma va malakalar, shaxsning kommunikativ yoʻnalishi va boshqa koʻplab komponentlarni ajratib koʻrsatadi.

Boʻlajak pedagogning kommunikativ kompetentligi bu turli muloqot vaziyatlarida yoʻnaltirilganlik boʻlib, u shaxsning bilimlari va hissiy tajribasiga asoslanadi. Bu atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati, oʻzini va boshqalarni tushunish orqali turli toifadagi aholiga tegishli aloqalarni oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlash qobiliyatidir. Bu doimiy ravishda ruhiy holatlar, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy muhit sharoitlarining oʻzgarib turishini anglash orqali amalga oshiriladi.

"Ensiklopedik lugʻat"da "kompetentlik" ma'lum bir sohadagi bilim va tajriba deb ta'riflanadi. Katta izohli psixologik lugʻat bu tushunchani "biror vazifani bajarish yoki biror ishni amalga oshirish qobiliyati" deb belgilaydi. E.S.Shilova esa bu kategoriyani "bilim, tajriba va qadriyatlarga asoslangan qobiliyat; bilimning malakaga aylanishi va amalda mustahkamlanishi", deb ta'riflaydi [2;2-b.].

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari tizimli va koʻp komponentli. "Kompetensiya" va "kompetentlik" insonning boshqa hayot faoliyati turlarida ham keng qoʻllanilib, uning kasbiy faoliyatining

yuqori sifatini anglatadi. Pedagogika ham ushbu tushunchalarga shu ma'noni beradi, ya'ni oliy o'quv yurtlari mutaxassislarini tayyorlash sifatini tavsiflash uchun. Mutaxassisning kompetentligini umumiy ko'rinishda kasbiy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va shaxsning kasbiy sifatlari kabi komponentlarni o'z ichiga olgan kompleks sifatida tasvirlash mumkin. Kommunikativ kompetentlik muammosi turli fanlarda muhim o'rin egallaydi. Ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlarda muloqot motivatsiyasini o'rganish A.A.Ershov, V.S.Magun, G.Myurrey, Y.M. Orlov, I.P.Shkuratova, shaxslararo muloqot kontekstlari L.I.Antsiferova, L.F. Burlachuk, V.N.Grishina, A.I.Dontsov, U.Tomas, Y.M.Jukov, E.Y.Korjova, F.Znanevskiy, M.Sherif; shaxslararo o'zaro ta'sir qoidalari va normalari A.Argayl, J.Byuvin, M.I.Bobneva, P.Vatslavik, J.A.Grexem, D. Jekson, shaxsning kommunikativ yo'nalishi V.V.Boyko, S.L.Brachchenko, Y.A.Makarov; kommunikativ munosabat M.A.Dzheralievskaya, E.V.Zaika, A.N.Ivashov, shaxsning kommunikativ sifatlari A.V.Batarchev, V.A.Kan-Kalik, A.A.Leontev, I.V.Yakovleva, ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentlik darajasi va uning komponentlari A.A.Bodalev, A.I.Dontsov, Y.M.Jukov, Y.N.Emelyanov, L.A.Petrovska, V.N.Kunitsina, N.V.Kazarinova, J.Raven, D.Shon kabi olimlarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Ijtimoiy pedagogika va kommunikatsiya sohalaridagi adabiyotlar kommunikativ kompetentlikni kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining asosi sifatida e'tirof etadi. Taniqli olimlar, jumladan, Yurgen Habermas kommunikativ harakat nazariyasida muloqotning jamiyat va shaxs rivojidagi rolini ta'kidlaydi. Karl Rogersning in-sonparvarlik psixologiyasi empatiya, samimiyat va faol tinglash kabi kommunikativ ko'nikmalarning mi-jozga yo'naltirilgan yordamda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Lev Vigotskiyning sotsiokultural nazariyasi esa muloqotning bilish jarayonlari va ijtimoiy rivojlanishdagi hal qiluvchi ta'sirini ochib beradi. Bu nazariyalar ijtimoiy pedagoglar uchun kommunikativ kompetentlikning nafaqat amaliy, balki nazariy asosini ham mustahkamlaydi, ularning kasbiy mahoratini oshirishda yo'naltiruvchi vazifani bajaradi.

Ushbu maqola nazariy-metodologik tadqiqot bo'lib, mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, tizimlashtirish va nazariy umumlashtirish metodlariga asoslangan. Ijtimoiy pedagogika, kommunikatsiya nazariyasi, psixologiya va sotsiologiya sohalaridagi turli manbalar, jumladan, ilmiy maqolalar, monografiyalar, darsliklar va me'yoriy hujjatlar o'rganilib, ijtimoiy pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning o'rni, tarkibiy qismlari va rivojlantirish yo'llari aniqlangan. Shuningdek, ijtimoiy pedagogika sohasidagi mutaxassislarning amaliy tajribalari va ilmiy-metodik qarashlari umumlashtirilgan. Maqolada kommunikativ kompetentlikning nazariy va amaliy jihatlari, uning ijtimoiy pedagogik faoliyatga ta'siri hamda kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Natija va muhokama. Bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismidir. Kommunikativ kompetentlik ta'lim, tarbiya, pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida shakllanadi va muloqot hamda faoliyat jarayonida shaxsni anglash va amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy pedagogning kommunikativ kompetentligi – bu turli muloqot vaziyatlarida yo'naltirilganlik bo'lib, u shaxsning bilimlari va hissiy tajribasiga asoslanadi. Bu atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati, turli toifadagi aholiga tegishli aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatidir. Bu doimiy ravishda ruhiy holatlar, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy muhit sharoitlarining o'zgarib turishini anglash orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pedagogning ijtimoiy va kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlik nafaqat muhim, balki hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omildir. Kommunikativ kompetentlikni muntazam ravishda rivojlantirish pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini kafolatlaydi, mijozlarga sifatli va samarali yordam ko'rsatish imkoniyatini oshiradi. Har bir ijtimoiy pedagog o'zining kommunikativ ko'nikmalarini doimiy takomillashtirishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

(1). Кузнецова Елена Витальевна. Формирование коммуникативной компетентности будущего социального педагога. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Йошкар-Ола, 2010, с. 11.

(2). В.И.Вашнёва. Формирование коммуникативной компетентности студентов в процессе подготовки социальных педагогов. С. 4.

(3). Петровская, Л.А. Компетентность в общении. М., "Просвещение", 1989, с. 216.

(4). A.Y.Axmedov. Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari. Galaxy international interdisciplinary research journal (Giirj), 2023.

(5). Yusufovich, A.A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. ACADEMICIA, An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), p. 302–304.